

МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ



Илимий-методикалық журнал

2024

5-сан

*Ўзбекистон Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ғәм хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы ғуўалық берилген.*

МАЗМУНЫ

ТИЛ ХАМ АДЕБИЯТ

Ibodullayeva S.M. “Kecha va Kunduz” romanida “Begonalik” tushunchasini ifodalovchi undalmalar	7
Haydarova G.M. O‘zbek tilining izohli lug‘atida yasama so‘zlardan foydalanish holati	13
Axmadaliyeva M. Sh. Ijodiy jarayonning mangullikka yo‘g‘rilishi	20
Sattorova Sh.R. Xorijiy tillarni badiiy adabiyot asosida o‘qitishning ilmiy-nazariy tahlillari	25

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Давлетмуратов Ж.К. Техникалық бағдардағы жоқарғы оқыў орынларында «Материалтаный» пәнин оқытыўда педагогтың креативлигин арттырыўдың нәтийжели жоллары	31
Икромов М.Х. Технология фанини ўқитишда рақамлаштирилган таълим ресурсларидан фойдаланишнинг ўзига хос хусусиятлари	38
Ахмаджанов Д.Б. Бўлажак ўқитувчиларни тайёрлашда шарқ мутафаккирларининг маънавий-ахлоқий таълимотларидан ғоявий омил сифатида фойдаланиш	44
Murtozayeva M.M. Voyaga yetmagan bolalarda salbiy hulqning namoyon bo‘lishi va ularni bartaraf etishning ijtimoiy-pedagogik tendentsiyalari	51
Mavlanov Sh.Yu. Ta‘lim jarayonida pedagogik atamalar mazmunini modernizatsiyalash va ulardan foydalanish funktsiyalari	56
Qodirova M.A. Oliy ta‘lim muassasalarining ingliz tili yo‘nalishi talabalarida refleksivlikni rivojlantiruvchi omillar	62
Begmatova S.N. Tayanch kompetensiyalarni aniqlash muammosi ta‘lim mazmunini yangilashning markaziy masalalaridan biri sifatida	67
Choriyeva G.Sh. Biologik ekskursiyalar – o‘quv ishlarining tashkiliy shakli sifatida	70
Karimova N.A. Maktab biologiya ta‘limida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishda pedagogik-psixologik xususiyatlari	76
Xalmuratov I.T. Qadriyatli yondashuv asosida talabalarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish	80
Ergashev J.M. Didaktik o‘yinlarning ta‘limiy va tarbiyaviy ahamiyati	85
Orinbetov N.T. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta‘minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar	92
Ochilov X.A. Oliy ta‘lim muassasalarida rahbar kadrlarni boshqaruv kompetentligini takomillashtirishning amaliyotdagi ahamiyati	98
Ismoilova Yu.T. Pedagogik muloqot jarayonidagi konfliktlar va ularni bartaraf etish yo‘llari	107
Sattorova M.A. Maktab ta‘limida bo‘lajak defektolog mutaxassislarini inklyuziv tayyorgarligini rivojlantirish muammosi	114
Jumamurodova U.M., Aliqulov L.Sh. Pedagogika fanida qo‘llaniladigan interaktiv metodikalar	120
Xolboyev A.M. “Hamkorlik zanjiri” asosida talaba-yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishning o‘ziga xos pedagogik jihatlari	124
Ahadov A.M. Modernizatsiya jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarda axborot xavfsizligini ta‘minlash ko‘nikmalarini takomillashtirish omillari	131
Eshmurodova G.X. Mehribonlik uylarida pedagogik muammolarining tadqiq etilishi	137
Murodova F.G’. Og‘zaki nutq malakasini baholash mazmuni, shakl vositalari va mezonlari. audio vizual dars tashkil etish	150
Suyunov I.E. Axborot kompetentligini rivojlantirish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy nutqini takomillashtirish pedagogik muammo sifatida	154
Аляминнов Х.И. Талабаларининг инновацион тадбиркорлик фаолиятини ривожлантириш омиллари	159
Mirzaboyev Yu .A. Kompetensiya va kompetentlikning pedagogik –psixologik xususiyatlari	164
Saxibov A.X. Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanini zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida o‘qitish	171



IJODIY JARAYONNING MANGULLIKKA YO‘G‘RILISHI

Axmadaliyeva M. Sh.

*ChDPU, “Boshlang‘ich tahlil nazariyasi
va amaliyoti” kafedrası o‘qituvchisi*

Tayanch so‘zlar: ijodiy jarayon, Zulfiya, shoira, zamon farzandi, tahlillar.

Ключевые слова: творческий процесс, Зульфия, поэтесса, дитя времени, анализы.

Key words: creative process, Zulfiya, poetess, child of time, analyses.

РЕЗЮМЕ: Ushbu maqolada badiiyatda ijodiy jarayonning mangulikka yo ‘g ‘rilishi haqida so z boradi. Misol sifatida o'zbek shoriyasi Zulfiya ijodidan namunalar keltirilgan. Shoiraning mashxur ijod namunalari tahlil qilingan.

РЕЗЮМЕ: В этой статье речь пойдет о вечности творческого процесса в искусстве. В качестве примера приведены образцы творчества узбекского шориаа Зульфийи. Проанализированы известные образцы творчества поэтессы.

SUMMARY: In this article, we will talk about the eternity of the creative process in art. As an example, examples of the work of Uzbek shorias Zulfiya are given. The well-known samples of the poet's work are analyzed.

Buyuk shoirlarning ulug‘vorligi, o‘z davrining iste‘dodli vakillarini kashf etishda ham muhim ahamiyatga ega. Zamon, har qanday mafkurani adabiyotga tiqishtirishga harakat qilsa-da, bu jarayonni angelaydigan ijodkorlar mavjud. Masalan, shoira Zulfiya har bir she‘rida zamonning ta‘sirini ko‘rsatish bilan birga, o‘zbek adabiyotining ustozlari izidan borib, yangi yo‘l to‘ishga intiladi. “Sensiz” turkumiga kiruvchi asarlarida shoira yolg‘izlik va tanholikning inson tabiatiga xos emasligini, lekin hayotning tragik sahnasi sifatida qismatga bo‘ysunishni talqin qiladi. Ushbu asarlarda yurakning chuqur hissiyati ilhom manbalaridan kuch oladi. Tog‘ bag‘ridan chiqayotgan buloqlar, mayda irmoqlardan birlashib, daryoni hosil qilgandek, shoiraning tuyg‘ulari ham ana shu irmoqlarning birlashuvini eslatadi. Bu birbutunlik shoiraning kechinmalarida hayotbaxsh hissiyotlarni namoyon etadi. Lirik kechinma, ‘oetik obraz va hissiy-shuuriy hayajon, og‘ir dard bilan kurashayotgan insonning holatini tasvirlaydi. “Sensiz”lik bag‘rida bir inson umrining murakkabligi, qismat bilan “siylanishi”



va kelajakda barchaning iziga qaytish umidi aniq ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi.

Shoira Zulfiya ning "Tong bilan shorn aro" nomli saylanma asarida joylashgan "Hijron kunlarida" deb atalgan qisqa fasl, o'n yettita she'rni o'z ichiga oladi. Bu yerda tabiiy savol tug'iladi: nega aynan "Hijron kunlarida" deb nomlangan? Ushbu fasl, turmush o'rtog'i H. Olimjonning vafotidan keyin yozilgan she'rlarni o'z ichiga oladi. Ayni ushbu faslda xayol va hayot orasidagi doimiy kurash, intim-'sixologik va tragik tafsilotlar o'z yechimini to'adi.

Mazkur fasldagi she'rlar yuqorida aytib o'tilgan tamoyilga ko'ra "Muhabbat mavzusidagi she'rlar jamlanmasi" deb atalishi mumkin. Jumladan, "Baxtiyor sevgini kulardi sozim", "Bahor keldi seni so'roqlab", "Ne baloga etding muhtalo", "Ko'rganmiding ko'zlarimda yosh?", "Sen qaydasan, yuragim", "Hayot jilosi", "O'rik gullaganda", "Sensiz", "Izlayman" kabi jozibali va dilbar she'rlarni alohida ta'kidlash va tahlil qilish mumkin.

Ushbu she'rlar o'z-o'zidan yaratilmagan, albatta! Har birida e'ik asar mazmuni mujassam. Boshqacha aytganda, yirik manzumaning mazmuni rivojlangan. Shoira Zulfiya, bu she'rlarni o'n yoki o'n besh banddan oshirmagan. Ushbu bandlar tizmasida butun ijod va hayot, muhabbat va o'lim, yolg'izlik va tushunmovchilik tushunchalari ta'sirdor bo'yoqlarda ifoda etiladi.

Buyuk rus munaqqidi V.G. Belinskiy shunday yozadi: "oeziyaning maqsadi nima? Tabiat tomonidan estetik tuyg'u berilgan insonlar uchun bu savol juda muhim va shu bilan birga murakkab ko'rinadi. 'oeziya o'zidan tashqari hech qanday maqsadni ko'zlamaydi. Bilimdagi haqiqat kabi, harakatdagi ezgulik ham uning o'zi maqsaddir." Haqiqatdan ham, "harakatdagi estetika" nazmning taqdiri belgilovchi omil hisoblanadi. U, barcha fazilatlar va ba'zan kamchiliklar orqali, ijodkorning botiniy suvratini va hayot haqidagi eng muhim qirralarni birlashtiradi.

Odatda san'atning asosida estetik tanlov yotadi, bu tanlov esa idrok nuqtai nazaridan rang-barang shakllanadi. Vaqt o'tishi bilan inson o'zligini yanada chuqurroq anglaydi va ruhning cheksiz 'arvozlarini davom ettirishni xohlaydi. Yaratuvchi asar mazmunan 'ishiq, shaklan esa jozibador bo'lishi zarur.

Turli ziddiyatlarni bir satr ichida zargar kabi joylashtirish mahoratning rivojlanayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga istak, xohish, imkon va iroda yo'nalishlari lirikaning tabiiy suvratini yanada go'zallashtiradi. She'riyat aslida ichki tashnalikdir! Ehtiyojni zamirida millat orzusi mushohada tanlovini tartibga soladi. Asl tuyg'ular realizmi voqelikni ong oqimi va iroda yo'nalishlari asosida tahlil qiladi.



Ushbu elementlar estetik tanlov va hissiy kechinmalar orqali ‘oetik mutanosiblikni yuzaga keltiradi. Tabiatga taqlidan yaratilgan lirik “men” tushunchasi mohiyatida aks etgan falsafa, fusunkor mazmunni taqdim etadi. Shoir Zulfiya ning “Hijron kunlarida” turkumiga kiritilgan ko“lab she’rlarida ijodkor qalbidagi xilma-xil ziddiyatlar, keskin to‘qnashuvlar va o‘z-o‘zi bilan olib borilgan monologlar kuzatiladi. Sub’ektiv kechinmalar umumiy estetik ruhdan oziqlanadi, badiiy tafakkur esa hayotiy tajribadan shakllanadi, aql va his bilan inkishof etilgan jihatlar esa hech birimizning e’tiborimizdan chetda qolmaydi.

Misol tariqasida, akademik I.K. Konrad Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonini o‘qib, ajoyib simfonik musiqa tinglagandek bo‘ldim, degan edi. Shoir Zulfiya ijodiga mazkur ibratomuz mushohadani qo‘shsangiz, masala mohiyati yanada oydinlashadi. “Ajoyib simfonik musiqa”ga o‘xshab, “Sensiz” she’rida qalbning hijrondan azob chekishi, ichki tashnalik va visol umidlarining ko‘z o‘ngida faqat xayoliy suvrat hosil qilinishi ‘oetik yaxlitlikda ifodalanadi:

*Mana bir ummi yashadim sensiz,
Qaytmas shodliklaming qaytishin kutib.
Tobuting boshida cho‘kkanimda tiz,
Farzandlar ko‘tardi qo‘limdan tutib.*

Yolg‘izlik va mahzunlik hissi butun she’r haroratida aks etadi. Unda lirik qahramonning go‘zal orzulari armonga aylanishi, badiiy voqelikning real manzarasi esa teran mushohada jarayonida estetik qadriyatlarni mujassam etgan. Ijodkorning fitratidan o‘tib chiqqan hayotiy mushohada, ezgulikning qoshida doimiy ravishda kuzatiladi. Bu esa ‘oetik matn tabiatini yanada mukammal aks ettirishga zamin tayyorlaydi.

Aslida, lirikada kechinma uch o‘lchovli matn tarkibidan iborat: kuzatish, tahlil qilish va baholash. Hissiy idrok ongli ravishda talqinning rang-barangligini yuzaga keltiradi. Teran mushohadalarga boy lirik kechinmalar natijasida bitta nuqtada o‘z ifodasini to‘adi. Bular ‘oetik axborotning ijodkor shaxsiyatiga qanchalik daxldorligini va bu voqelikning tadrijiy shakllanishida muhim rol o‘ynagan “tuyg‘lar realizmi” haqqoniy manzarasining inkishof qilinishida ko‘zga tashlanadi.

Ijodkor mushohada markaziga qalbning orzu-umidlarini qo‘yadi. Bir qarashda estetik qadriyatlar negizida shaxsiy-intim kechinmalar aks etayotgandek tuyuladi, lekin mohiyatiga nazar tashlanganida, insoniyat qismatiga daxldor, hamma uchun qadrli va ibratli voqealar o‘ziga xos tarzda dunyoga kelishini yanada chuqurroq anglash mumkin. Shoir Zulfiya ning ko“lab she’rlarida bu masalaning real ifodasini kuzatish mumkin.



“Sensiz” deb nomlangan she’r o’z vaqtida haqqoniy baho olgan. Bu haqda vaqtli matbuotda, shuningdek, shoira Zulfiya ijodi haqida yozilgan esse va ijodiy ‘ortretlarda ham e’tirof etiladi. Akademik L. Qayumov mazkur she’rni Zulfiya lirikasining eng kulminatsion nuqtasi sifatida ta’riflaydi: “Lirik qahramon sevgi tarixini ko’z oldidan o’tkazadi. Visol damlari, farzand baxti, hayot lazzati, muhabbat sharbatlari, rashk va raqibalar vahimasi... Mana shu tuyg’ular kaleydosko‘idan hatto eng yoqimsizini ham bugun qabul qilishga rozi. Chunki ulkan muhabbat mayda hissalariga muhtoj. Ammo shoiraning realizmi shundaki, bu ayriliqning zaharli ta’mini ham yaxshi biladi, to’g’ri tasvirlaydi, lekin yorining hayot bo’lishi uchun eng og’ir og’irlikni yutishga tayyor.”

Darhaqiqat, lirik yechimning zalvorini L. Qayumov to’g’ri ta’kidlaganidek, Zulfiya taqdirining ayanchli manzarasini, qalbidagi to’lqinlar kabi doimiy harakatda bo’lgan ayriliq va hijron nafasini “ochiq-oydin” kuzatish mumkin. Agar taqdir uning ‘eshanasiga iztirobli qismatni ravo ko’rmaganida, bunday qashshoqlik va yolg’izlik azoblarini tatib ko’rmagan bo’lardi.

Ayonki, shoira Zulfiya ning “biror-bir she’ri yo’qki, unda tabiat so’zlamasa, harakat qilmasa, iztirob chekmasa yoki kuylamasa...” Ushbu she’rlarni o’qiganda, hatto ba’zan tabiat odamdan ko’ra odamroq, jonliroq va qalbi borroq, hassosroq tuyuladi. Shoira Zulfiya ning estetik olami ‘oetik yo’sinda yanada o’zgacha va betakror ko’rinishga ega bo’ladi, bunda tabiat tasviri - ‘eyzaj badiiy vazifasi beqiyosdir. Chunki intim lirikaning markazida tabiat hodisalari bilan ruhiyatning erkin ‘arvozi birinchi ‘landa tasvirlanadi.

Bir-biriga antiteza bo’lgan tushunchalar zamirida qalb va yurak harorati ziddiyatlari, tabiiy jarayonning ajralmas halqasini tashkil etadi. Bahor motivi bir-biridan keskin ziddiyatli mulohazalarni ‘oetik butunlikda bog’laydi. Bahor - taqdir kuzatuvchisi bo’lsa, qish uning mavhum idrok fasli hisoblanadi. Xuddi tun va kun birikmasidek, yaxlit manzara birining ikkinchisining yuzaga chiqish sababiyati sifatida namoyon bo’ladi:

Qirlarga ilk chiqqan qo’ychivonlardek,

Qayda shoir, deya ayladi so’roq.

Barida sukunat ma’yuslik ko’rib,

Horib-charchab keldi, toqatlari toq...

“Bahor keldi seni so’roqlab” deb nomlangan xotira she’rida, yuqorida ta’kidlanganidek, bahor falsining fusunkor qiyofasi lirik qahramonning ko’nglida kechayotgan hislarga yordam berish bilan birga, jamiki mavjud hodisalar va ‘redmetlardan “mash’uq” haqida sirlardan kalit vazifasini o’tamoqda. Bahor — ‘oetik obraz bo’lib, jonlantirish usuli orqali yaxlit kechinmalarni idrok qilishga erishadi.



Nazmning sirli tabiati aslida, jonsiz narsalarga jon ato etishdir. Navoiy ham tabiat hodisalarini, holi tili bilan ochib berishga jiddiy e'tibor qaratgan. Holi tili faqat o'zligida yangi sifatlar to'gan zotlargagina nasib bo'lishini Mavlono Rumi ham yuksak qadrlaydi. Shoir Zulfiya o'ziga xos holatda "holi tili bilan tillashgandek" bo'ladi. Bunda til, tashqi faoliyat munosabati bilan, botin hislar, sezgi, kechinmalar va ruhning fazoviy 'arvozi bilan munozaraga kirishadi.

*"Qani o'sha kuychi, xayolchan yigit?
Nechun ko'zingda yosh, turib qolding lol.
Nechun qora libos, sochlaringda oq,
Nechun bu ko'klamda sen 'arishonhol?"*

Umuman olganda, bahor haqidagi she'rdagi kuzatuvli ritorik savollar lirik qahramonning tabiat haqidagi ongli fikrlariga tasalli beradi. Shoir atrof-muhitdan emas, balki fasllarning muloyimligi bahorni to'ldiradigan tabiatdan Ilhom oladi. Bahorga oid savollar, uning sifatlari va tavsiflari, hatto qisqa quvonch lahzasi bo'lsa ham, o'zingizni baxtli his qilishingizga imkon beradi. Bahor ikki sevgilining xayoliy yaqinlashuvi joyiga aylanadi, u erda "tole va baxt" simfoniyasi yangray boshlaydi. Bahor javobsiz savollardan charchamaydi. Aksincha, shoir ayol yuragining yolg'izligini his qilayotgandek; uning ko'zlarida qayg'u ohangi yangraydi, keyin uning atrofida quvonch sohadigan gullar aylanadi. Shunday qilib, lirika matnning 'oetikasiga e'tibor beradi - rasmiy elementlar ma'lum voqeliklarda mujassamlangan. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu she'r alohida yaxlitlikka ega bo'lib, shoir Zulfiya ijodining haqiqiy marvarididir.

ADABIYOTLAR:

1. Belinskiy V.G. Adabiy orzular. -T.: "Adabiyot va sanhat" nashriyoti. 1977.
2. Akramov B. Shehriyat gavxdri. -T.: "Adabiyot va sanhat" nashriyoti. 1979.
3. Kdymov L. Zulfiya. -T.: "Adabiyot va sanhat" nashriyoti. 1975.
4. Ganiev I va boshd. SHavkat Raxmon olami. -T.: "Akademnashr". 2013.
5. Zulfiya. Tong bilan shom a'o. -T.: "SHARK". 2005.

ISSN 2181-7138

Т. Н. Қары Ниязий атындағы Өзбекстан педагогикалық
илим-изертлеу институтының Ж. Орынбаев атындағы Қарақалпақстан филиалы

**«МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ
БИЛИМЛЕНДИРИЎ»**

№ 5

Нөкис — 2024

Басып шығыўға жуўапкер:

А. Тилегенов, С. Нуржанов

Баспаға таярлаған:

А. Тилегенов

Компьютерде таярлаған:

П. Реймбаев, З. Ниязымбетова

Мәнзил: Нөкис қаласы, Ерназар Алакөз көшеси №54

Тел.: +998 61 224-23-00, +998 61 224-01-34

e-mail: uzniipnkkf@mail.uz,

mugallim-pednaik@mail.uz

www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz

www.KRTEACH.UZ

Журналға келген мақалаларға жуўап қайтарылмайды, журналда жарияланған мақалалардан алынған үзіндилер «Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў» журналынан алынды, деп көрсетилиўи шәрт. Журналға 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледі. Мақалада келтирилген мағлыўматларға автор жуўапкер.

Оригинал-макеттен басыўға рухсат етилди 09.09.2024. Форматы 70x100^{1/8}

«Таймс» гарнитурасында офсет усылында басылды.

Шәртли б.т. 31. Нашр. т. Нұсқасы _____ Буйыртпа №